

Otabek JONIYEV,

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: jonihev_otabek@mail.ru

Tel: 934337782

CHDPU Geografiya kafedrasasi professri A.K.Urazbayev taqrizi ostida

AMUDARYO HOZIRGI DELTASI TUPROQ QOPLAMI STRUKTURASINING RELYEFLAR BILAN O'ZARO ALOQADORLIGINI O'RGANISH

Annotatsiya

Maqolada Amudaryo hozirgi deltasi tuproq qoplami strukturasining relyef elementlari bilan aloqadorligi ilk bor relyef plastikasi usuli asosida tahlil qilindi. Obyektning yirik mashtabli relyef plastikasi kartasi asosida sug'orilmaydigan hududlar misolida tuproq qoplami strukturasining relyef elementlari bilan birikuviga dala sharoitida tadqiq qilindi. Shu bilan bir qatorda, obyektning relyef plastikasi kartasi asosida "Elementar landshaft" guruhlari ajratildi. So'ng esa tuproq qoplami strukturasining kichik deltalar misolida (Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo, Oqboshli, Qipchoqdaryo) tartibli o'zgarishi o'rganildi. Ayniqsa kichik deltalarning yuqori qismida joylashgan tuproq qoplaming strukturasini asosan kuchsiz sho'rangan bo'lsa, quiyi qismida joylashgan tuproqlar kuchli sho'rangan bo'ladi. Tuproq qoplami strukturasining relyef plastikasi usuli asosida tahlil qilish o'z navbatida bu tuproqlarda ro'y berayotgan cho'llanish jarayonini prognoz qilishga ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Relyef plastikasi usuli, tuproq qoplami strukturasi, kichik deltalar, "Elementar landshaft" guruhlari, balandlik va pastliklar, relyefning daraxtsimon strukturasi, tuproq turlari.

STUDY OF THE RELATIONSHIP OF THE SOIL COVER STRUCTURE OF THE CURRENT AMUDARYO DELTA WITH RELIEF ELEMENTS

Annotation

In the article, for the first time, the relation of the soil cover structure of the Amudarya delta with the relief elements was analyzed based on the relief plastic method. On the basis of a large-scale relief plastic map of the object, on the example of non-irrigated areas, the combination of soil cover structure with relief elements was studied in field conditions. In addition, "Elementary landscape" groups were divided on the basis of the relief plastic card of the object. Then, the orderly change of the soil cover structure was studied in the example of small deltas (Kokhnadarya-Kazogdarya, Aqboshli, Kipechakdarya). Especially in the upper part of the small deltas, the structure of the soil cover is weakly saline, while the soils in the lower part are strongly saline. The analysis of soil cover structure based on the relief plastic method, in turn, creates a scientific basis for forecasting the process of desertification occurring in these soils.

Key words: Relief plastic method, soil cover structure, small deltas, "Elementary landscape" groups, elevations and depressions, tree-like structure of the relief, soil types.

ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ СТРУКТУРЫ ПОЧВЕННОГО ПОКРОВА СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ С ЭЛЕМЕНТАМИ РЕЛЬЕФА

Аннотация

В статье впервые на основе метода пластики рельефа проанализирована взаимосвязь структуры почвенного покрова дельты Амударыи с элементами рельефа. На основе крупномасштабной карты пластики рельефа объекта на примере неорошаемых территорий изучено сочетание структуры почвенного покрова с элементами рельефа в полевых условиях. Кроме того, группы «Элементарных ландшафтов» были выделены на основе карты пластики рельефа объекта. Затем изучено изменение структуры почвенного покрова на примере мельких дельт (Кухнадарья-Казахдарья, Акбашли, Кипчакдарья). Особенно в верхней части мельких дельт структура почвенного покрова слабозасоленные, а в нижней части — сильнозасоленные. Анализ структуры почвенного покрова на основе метода пластики рельефа, в свою очередь, создает научную основу для прогнозирования процесса опустынивания, происходящего в этих почвах.

Ключевые слова: Метод пластики рельефа, структура почвенного покрова, мелькие дельты, группы «Элементарных ландшафтов», повышения и понижения, древовидная структура рельефа, типы почв.

Amudaryo hozirgi deltasingin tuproq qoplami strukturasini tadqiq qilishda tuproq hillarining vujudga kelishi va rivojlanish sabablarini aniqlashdan iborat. Bu savolga har tomonlama javob berish uchun eng avval landshaftning geomorfologik taraqqiyotini, tuproq hosil bo'lishi va geomorfologik jarayonlarning o'zarobog'liqligini tadqiq qilishni talab etadi.

Amudaryo hozirgi deltasingin tuproq ma'lumotlarini ilmiy tahlil qilish shu narsani ko'rsatmoqdaki, tuproq hillari faqatgina relyef elementlari (balandliklar, pastliklar) bilan bog'lanib qolmasdan, balki shu bilan bir qatorda, elementar kichik deltalarning daraxtsimon strukturalari bilan ham bog'langandir. Buzga ma'lumki, Amudaryo hozirgi deltasingi kichik deltalar (Qipchoqdaryo, Oqboshli, SHo'rtamboy, Ravshan va boshqalar) deltadagi shu nom bilan nomlangan tarmoqlarning ishi natijasida vujudga kelgan. Har bir kichik deltalar o'ziga hos ichki strukturaga va turlicha maydonlarga ega bo'lganligi uchun ham ularning tuproq qoplami strukturasini o'zgacha tuzilishga ega bo'ladi.

Tuproqlar tarqalishining o'ziga hos hususiyatlari shundan iboratki, u relyefning yoshiga va tuproq hosil qiluvchi jinslarning fizik-mexanik hossalariga bog'liq holda o'zgaradi. Ana shunga bog'liq holda, o'tloq-taqirli tuproqlar tipik holdagi sho'rxoklar (o'tloq, qatqaloqli, namli va boshqalar) bilan kompleks hosil qilgan holda kamdan-kam hollarda o'zanlararo pastliklarda ham rivojlanadi, ya'ni bu pastliklar deltaning gidromorf rivojlanish tarixida ko'l va botqoqlar bilan band bo'lgan. O'tloq-taqirli, qoldiq-botqoq tuproqlarning yuqori qatlamida og'ir qumoq va soz mexanik tarkibi ustunlik qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tuproqlarning shu tariqa joylanishida asosiy omil relyef strukturasidir.

Har xil turdagida sho'rxoklar asosan yuqorida aytilib o'tilgan kichik deltalarning quiyi qismlarida va ularning tutashgan hududlarida keng tarqalgan, Sug'irlmaydigan hududlarda asosan o'tloqli sho'rxoklar keng tarqalgan bo'lib, ular o'zlarining o'simlik qoplaming ko'pligi jihatidan boshqa sho'rxok turlaridan (qatqaloqli, namli va boshqalar) keskin farq qiladi. Shu bilan bir qatorda, sho'rxoklar Oqboshli va Qipchoqdaryo kichik deltalarining qurigan Orol dengizi bilan tutashib ketgan hududlarda ham keng tarqalgan.

Oqboshli va Qipchoqdaryo kichik deltalarining qurigan Orol dengizi bilan tutashib ketgan hududlarda va Mo'ynoqdag'i qirda hamda qir atroflarida asosan qumli – cho'l tuproqlari keng tarqalgan bo'lib, bu tuproqlarda hozirgi vaqtida cho'llanish jarayonlari avj olmoqda. Qumli cho'l tuproqlarining maydonlari yildan-yilga ortib bormoqda.

Tuproq qoplaming strukturasi kartasi – ma'lum bir hudud tuproqlarining relyef elementlari bilan birikuvini tasvirlaydigan maxsus kartadir. U tuproqlarning Yer yuzida tarqalishining aniq tasvirini beradi, ya'ni tuproqlarning o'ziga hos «rasmlarini» ko'rsatadi.

Delta geotizimlaridagi tuproqlarning hosil bo'lishida va rivojlanishida relyef strukturasining roli juda xilma-xildir. Relyef Yer yuzasida namlikning, yer usti suv oqimlari mahsulotlarining taqsimlanishiga hamda tuproqlarning hosil bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Kelib chiqishi jihatidan hilma-xil relyef tiplarining bir-biriga bo'lgan munosabati ana shu hududning relyef strukturasini hosil qiladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, relyef strukturasi deganda, relyef elementlarining (balandliklar, pastliklar) bir biriga bo'lgan munosabati yoki aloqadorligi tushuniladi.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, aynan yirik masshtabi 1:25000 relyef plastikasi kartalari o'rganilayotgan obyektning strukturasini tasvirlaydi. Relyef plastikasi kartasida alohida olingen relyef tiplarining joylashgan o'rnini emas, balki xilma-xil relyef shakllarining ichki strukturasi tasvirlanadi, ya'ni ana shu relyef shakllarining tabiiy «rasmlari» ko'rsatiladi. Bir so'z bilan aytganda, havzaviy kartalashtirish usuli bo'lgan relyef plastikasi kartalarida har bir relyef shakllarining bir-biridan ichki strukturasi bo'yicha farqlanishi aniq tasvirlanadi. Misol uchun, qumli massivlarda relyef elementlarining bir-biriga bo'lgan munosabatlari allyuvial tekisliklardagi relyef elementlarining bir-biriga bo'lgan munosabatlaridan tubdan farq qiladi. Ana shu farqlar relyef plastikasi kartalarida yaqqol tasvirlanadi.

Relyef plastikasi kartasi tuproq qoplaming strukturasi kartasi uchun asos bo'lib hisoblanadi, ya'ni tuproq hillarining konturlari asosida balandliklar yoki pastliklar bo'ladi. Delta geotizimlarining tuproq qoplaming strukturasini tasvirlashda tuproq hillarining vujudga kelishi va rivojlanishi haqidagi bilimlarga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu savollarga javob berishda landshaftning geomorfologik evalyutsiyasini hamda geomorfologik va tuproq hosil qiluvchi jarayonlarning o'zaro ta'sirini o'rganish kerak.

Relyef plastikasi kartalari asosida tuzilgan tuproq qoplaming strukturasini kartalarida tuproq xillarining relyef elementlari bilan birikuvchi to'liq tasvirlanadi. Bu kartani tuzishda V.M.Borovskiy va M.A.Pogrebinskylarning ta'limoti katta ahamiyatga ega. V.M. Borovskiy O'rta Osiyoning eng qadimgi deltalaridan biri bo'lgan Sirdaryo deltasini misolida yer usti suv oqimining jarayonini hisobga olga holda deltadagi «Lito-morfo-pedogenez jarayonlarining yaxlitligi» haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Bu ta'limot 1942-1945 yillar davomida Sirdaryo deltasida olib borilgan tadqiqotlarga aoslangan holda 1958 yilda M.A. Pogrebinskiy va boshqalar bilan hamkorlikda yozgan «Sirdaryoning qadimgi deltasini va Shimoli Qizilqum» nomli monografiyada o'z aksini topdi. Ilmiy adabiyotlarda lito-morfo-pedogenez haqidagi tushuncha ilk bor 1947 yilda V.M.Borovskiy tomonidan qo'llanilgan.

V.M.Borovskiyning Sirdaryo deltasida olib brogan tadqiqotlari natijasida tuproq hosil qiluvchi jarayonlarning tabiiy bog'lanish g'oyasi deltadagi lito-morfo-pedogenez jarayonining birligi ta'limotida o'z aksini topdi, ya'ni landshaft komponentlarining o'zaro ta'sirini tadqiqot qilishi natijasida shakllandi. Darhaqiqat, yotqiziqlarning yotqizilishi natijasida har xil litologik tarkibga ega bo'lgan relyef guruuhlarida (o'zanbo'yi balandliklari, balandliklarning yonbag'irlari, o'zanlararo pastliklar) o'ziga hos tuproq hillari hosil bo'ladi. Hosil bo'ladigan landshaftda mexanik tarkib, relyef va tuproqlar o'zaro aloqada bo'lib, deltaning o'ziga hos landshaftini hosil qiladi.

Delta sharoitida daryo o'zining ko'p tarmoqlarga bo'linib ketishi, buning natijasida loyqa jinslarning yotqizilishi va uning uzuksiz ko'tarilishi ro'y beradi. Hosil bo'lgan o'zanbo'yi balandliklari o'zan atrofdagi hududlarga nisbatan ustunlik qilish tashabbusini o'z qo'liga oladi ya'ni atrofdagi pastlik hududlarning holati to'g'ridan-to'g'ri o'zanbo'yi balandliklari bog'liq bo'lib qoladi. Tabiiy do'nglarning hosil bo'lishi natijasida o'zan atroflarida, o'zanbo'yi balandliklari va ularning oraliqlarida o'zanlararo pastliklar hosil bo'ladi. O'zanlarda suv ko'p bo'lgan yillari o'zanbo'yi balandliklarning o'pirilishi va suvning toshishi ro'y beradi. Yer usti suv oqimlarining o'zgarishi natijasida yotqiziqlarning har xil guruhlarga bo'linishi sodir bo'ladi. Bu bilan alyuvial yotqiziqlarning fazoviy tabaqalanishi yuzaga keladi. O'zanbo'yi balandliklarda asosan qum, juda oz miqdorda qumloq to'plansa, o'zanbo'yi balandliklarning yonbag'irlarida juda oz miqdorda qum va asosan, qumloq, yengil qumoq to'planadi. O'zanlararo pastliklarda esa asosan og'ir qumoq va soz to'planadi. Yotqiziqlarning bu tartibda joylashishi asosan, suv yordamida olib kelgingan yotqiziqlarning yotqizilish qonuniyatlariga bog'liq.

V.M.Borovskiyning Sirdaryo deltasida olib brogan tadqiqotlari bog'liq bo'lmagan holda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tuproqshunoslik institutining olimlari 1952-1954 yillar oralig'ida N.V.Bogdanovich rahbarligida Amudaryo hozirgi deltasining tuproqlarini maxsus o'rganish uchun ilk bor ekspeditsiya tadqiqotlarini olib borishgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari N.V.Bogdanovichning «Amudaryo deltasidagi tuproqlar hosil bo'lishining ba'zi bir hususiyatlari» nomli maqolasida o'z aksini topgan (1955).

N.V. Bogdanovich o'zining olib brogan tadqiqotlari natijasida delta relyefini uch guruhg'a ajratadi; 1. O'zanbo'yi balandliklari; 2. O'zanbo'yi balandliklarning yonbag'irlari; 3. O'zanlararo pastliklar. Ajratilgan relyefning uch guruhi B.B. Polinov ajratgan elementlar landshaftlarning guruuhlariga (elyuvial, trans-elyuvial, superakval) to'liq mos keladi.

Relyef plastikasi kartasi asosida relyefning uch guruhi ajratiladi. 1. O'zanbo'yi balandliklari; 2. O'zanbo'yi balandliklarning yonbag'irlari; 3. O'zanlararo pastliklar. Bu relyef guruuhlari ajratilgan kartalarda tuproq hillarining relyef guruuhlari bilan aloqadorligi yaqqol seziladi. Misol uchun, Amudaryo o'zanbo'yi balandliklarda asosan o'tloq-taqrirlar to'qay tuproqlari tarqalgan bo'lsa, o'zanbo'yi balandliklarning yonbag'irlarida esa asosan o'tloq-taqrirlar tuproqlar tarqaladi. Bu qonuniyat sug'orilmaydigan hududlardagi barcha kichik deltalarga tegishlidir. O'zanlararo pastliklarda asosan o'tloq tuproqlar va sho'rxoklarning har xil tiplari joylashadi. Bu hududlarda gidromorf rejimidagi tuproqlarning tarqalishida relyefdan tashqari yaqin joylashgan grunt suvlaringin roli ham kattadir.

Tuproq hillarining relyef guruuhlari bilan aloqadorligini ko'rsatadigan tuproq qoplaming strukturasini kartasi yangi tipdag'i tuproq kartasi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, tuproq hillarining konturlari asosida faqat relyef elementlari emas, balki delta sharoitidagi relyef guruuhlarining konturlari yotadi, ya'ni relyefning uch guruuhlari tushunchasi bilan relyefning elementlari tushunchasi sinom emas. Bir so'z bilan aytganda, relyef plastikasi kartasi asosida tuproq qoplami strukturasining kartasini tuzishda V.M.Borovskiyning hamda N.M.Bogdanovichning ilmiy asarlari bilan habardor bo'lishingiz lozim. Bu asarlarning fundamental asarlar bo'lib, ko'p yillar o'tishi bilan ham o'z ilmiviligini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda, bu asarlarning barchasi ko'p yillar davomida dalada olib borilgan ekspeditsiya ma'lumotlari asosida yozilgandir.

Bu yerda yana shuni ta'kidlash lozimki, relyef plastikasi asosida tuzilgan yangi tipdag'i tuproq qoplaming strukturasini kartalari to'g'ridan-to'g'ri tuproq hillarining relyef guruuhlari bilan birikuvini yaqqol tasvirlaydi. Shunday qilib, relyef plastikasi

kartasi asosida tuzilgan tuproq qoplaming strukturasi kartalari ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Bu kartalarning amaliy ahamiyati shundaki, pastliklarda joylashgan tuproq qoplaming strukturasida doimo melioratsiya ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Shu bilan bir qatorda bu kartalarda irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining joylanishi aniq ko'rsatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Богданович Н.В. Некоторые особенности почвообразования в дельте Амудары // Труды института почвоведения. Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1955, Вып. 1 – С. 3-24.
2. Боровский В.М., Погребинский М.А. Древняя дельта Сырдарьи и Северные Кызылкумы. – Алма-Ата: Изд-во АН КазССР, 1958, - I. – 516 с.
3. Уразбаев А.К. Системная организация природно-мелиоративных условий современной дельты Амударьи. Автореферат диссерт. на соиск. уч. степени докт. геогр. наук. – Ташкент: 2002. - 48 с.
4. Уразбаев А.К., Хурсанов Д.Б. Дельта геотизимларининг лито-морфо-педогенез жараёнини ўрганишнинг илмий методик асослари. //Ўзбекистан география жамияти ахбороти. 51-жилд. – Т., -Б. 36-40.